

O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Abduraxmonov Alisher Abduraxim o'g'li
Farg'onan shaxar kasb - xunar maktabi*

Annotation

Maqolada tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi, "kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari, ularning tarkibi, mazkur tushunchalarga nisbatan turli-tuman yondashuvlar, kompetenisyalar va kompetentlilikning shaxs taraqiyotida tutadigan o'rni tavsiflab berilgan. Ko'plab pedagog va psixologlarning yondashuvlari tahlil qilingan. Mazkur tahlillar natijasida ilmiy qarashlar bayon etilgan. Shunga ko'ra ushbu maqola pedagog olimlar, o'qituvchilar, dastur va darslik mualliflari, tadqiqotchilar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlilik, shaxs taraqqiyoti, ta'lim jarayoni, bilim, ko'nikma, malaka, tayanch hayotiy kompetensiya, fanga oid kompetensiya.

Bugungi kunda ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchi hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va muntazam tarzda rivojlantirib borish pedagogikaning dolzarb masalalariga kiradi. Kompetensiya – o'quvchilarning ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab. Kompetentlilik ko'p qirrali bo'lib, uning bir necha talqinlari mavjud. Kompetentlilik o'quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishni anglatadi. Kompetentlilik o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal darajadagi bilim, ko'nikma, malakalari va amaliy tajribalarini o'z ichiga oladi. Xususiy kompetensiyalar bilan tayanch kompetensiyalar o'zaro farqlanadi. Tayanch kompetensiyalar o'quvchining istiqboldagi hayotiy-ijtimoiy faoliyati modeli hisoblanadi. O'quvchilar muayyan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lgach, o'zlarini egallagan kompetensiyalarini faoliyatlarini orqali tatbiq eta oladilar. Tayanch kompetensiyalar ko'proq o'quvchining istiqboldagi ijtimoiy faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Xususiy o'quv fani doirasida o'zlashtiriladigan kompetensiyalar esa, asosan, o'quv va istiqboldagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Kompetensiyalar har bir mamlakat xalqining turmush tarzi, madaniy, ma'naviy hayoti, an'analaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya'ni ijodiy yaratuvchilik xarakteriga ega bo'lib, ularni muntazam faollikkha undaydi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ,

axborotlar bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kabilarni kiritish mumkin. O‘quvchilarda kompetensiyalardan foydalanish tajribasini hosil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o‘qituvchilar tomonidan tanlanadigan ikkilamchi loyihalar tarkibiga kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari, ta’limiy topshiriqlarni kiritish, raqamlı didaktik vositalarni ishlab chiqishga xuddi shu nuqtai nazardan yondashish alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, barkamol shaxsnı tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini ta’minalash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga oid kompetensiyalar belgilab berildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda umumiy va xususiy yondashuvlarni aniq hisobga olish va mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda mazkur hodisaning nazariy-didaktik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. So‘nggi yillarda kompetentli yondashuv tushunchasi pedagogikada keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim amaliyotida tez-tez qo‘llanilayotgan ushbu atama ta’lim mazmunida ustuvor o‘rin egallamoqda. Kompetentli yondashuv tayanch tushuncha sifatida zamonaviy pedagogikaning ilmiy tushunchalari tarkibiga singish bosqichlarini o‘tamoqda. Mazkur tushunchaning o‘ziga xos jihatni uning pedagogika fanida eskirib qolgan tushunchalar bilan o‘zaro qiyoslashni taqozo qilishidadir. Biz o‘z tadqiqotimiz davomida kompetensiyaviy yondashuv doirasiga kiradigan va u bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan tushunchalarni izohlashga harakat qilamiz. Ular: kompetensiya, kompetentlilik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik kabilar. Shu bilan bir qatorda biz tadqiqotimiz davomida kompetentlilik va tayyorlik, kompetensiya hamda bilim, ko‘nikma, malakalarning har biri ustida fikr yuritishga harakat qildik. Kompetentli yondashuv yagona ta’lim jarayonini ta’minalashning konseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shuning uchun ham u bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilashni taqozo qilmoqda. O‘tgan asrning 90 yillaridayoq, kompetentlilik tushunchasi, bir tomondan yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtirish imkonini berib, insonning bilish faoliyati va amaliy harakatlariga taalluqlidir. Ikkinci tomongan esa, har bir sinfda pedagogik vaziyat bilan bog‘liq holda ta’limiy talablarni aniqlashga ko‘maklashadi, deb yozgan edi H.C.Розов. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-1875-soni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-soni

Qarorlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ma'lumki, kompetentli yondashuv insonning ijtimoiy hayotga har tomonlama tayyorligi va tarbiyalanganligi bilan bir qatorda shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashda insonparvarlik xarakteriga ega. Insonparvarlik prinsipiiga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi o'quvchilarga muayyan sohada bilim, ko'nikma, malakalar majmuini taqdim etishdangina iborat emas, balki ularning dunyoqarashi, layoqati, kreativ faoliyati, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda ular ongiga insoniy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi kompetentli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Kompetentli yondashuvning tayanch darajalari ta'limning bevosita maqsadga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Kompetensiyada o'quvchilarning yuqori darajada umumlashgan ko'nikma va malakalari mujassamlashadi. Ta'lim mazmuni esa to'rt komponentli model orqali oydinlashadi. Ular: bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyatli munosabat tajribasidan iborat. Mutaxassislar kompetentli yondashuv doirasida ikkita tayanch tushunchani alohida ajratib ko'rsatganlar. Ular: kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari. Pedagogik nazariyada ularning mavjud jihatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyalarning shakllanishi va ular orasidagi o'zaro munosabatlar bunga misol bo'la oladi. Olimlar orasida kompetensiyalarning tavsifiga doir yagona yondashuv mavjud emas. Bir qator mutaxassislar "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalari orasida o'zaro chegara mavjud emas, deb hisoblaydilar. Shunday olimlar sirasiga В.С.Леднев, Н.Д.Никандров, М.В.Рыжаковларни кiritish mumkin. Aksariyat mutaxassislar esa ular orasidagi farqli jihatlarni ko'rsatib o'tganlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил б апрелдаги —Умумий ўрта ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълим мининг Давлат таълим стандартларини тасдиқлаш түғрисидағи 187-сон Қарори //www.lex.uz
2. Бошлангич таълим концепцияси // тузувчилар: Р.Г.Сафарова ва бошк.-Тошкент: РТМ-2015. ЎзМУ хабарлари - 183 - Фалсафа фанлари
3. Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании // Интернет-журнал "Эйдос". - 2005. - 10 сентября. - <http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm>.
4. Бондаревская Е.В. Парадигма как методологический регулятив педагогической науки и инновационной практики // Педагогика, 2007, №6. – С.3-10
5. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.